



## JINOYAT SODIR ETISHGA MOYIL SHAXSLARNING KRIMINOLOGIK QIYOFASI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20173387>

**Xayitov Farrux Shermatovich**

*Qashqadaryo viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha  
Shahrisabz shahar sudining sudya yordamchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning kriminologik qiyofasini shakllantiruvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida shaxsning ijtimoiy-demografik, ma'naviy-axloqiy va psixologik belgilari, shuningdek, antisotsial yo'nalganlikning barqarorligiga qarab jinoyatchi tipining tasnifi ko'rib chiqiladi. Maqolada shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi defektlar va huquqiy ong deformatsiyasining jinoiy xulq-atvorga ta'siri yoritilgan bo'lib, olingan natijalar asosida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha manzilli ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jinoyatchi shaxsi, kriminologik qiyofa, jinoyatga moyillik, ijtimoiylashuv, huquqiy nigilizm, antisotsial yo'nalish, tasodifiy jinoyatchi, ashaddiy jinoyatchi, profilaktika, deformatsiya.*

**Аннотация.** *В статье проводится системный анализ факторов, формирующих криминологический облик лиц, склонных к совершению преступлений. Рассматриваются социально-демографические, морально-этические и психологические признаки, а также классификация типов преступников в зависимости от устойчивости их антисоциальной направленности. Освещается влияние дефектов процесса социализации и деформации правосознания на преступное поведение. На основе полученных результатов выдвигаются адресные научно-практические предложения по профилактике преступности.*

**Ключевые слова:** *личность преступника, криминологический облик, склонность к преступлению, социализация, правовой нигилизм, антисоциальная направленность, случайный преступник, злостный преступник, профилактика.*

**Abstract.** *The article provides a systematic analysis of the factors forming the criminological profile of individuals prone to committing crimes and their specific characteristics. The study examines socio-demographic, moral-ethical, and psychological traits, as well as the classification of offender types based on the stability of their antisocial orientation. The paper highlights the impact of socialization defects and the*



*deformation of legal consciousness on criminal behavior. Based on the findings, targeted scientific and practical recommendations for crime prevention and the implementation of differentiated preventive measures are proposed.*

**Keywords:** *personality of the offender, criminological profile, propensity to crime, socialization, legal nihilism, antisocial orientation, situational offender, habitual offender, prevention, deformation.*

Jinoyat sodir etishga moyil shaxsning kriminologik qiyofasini o'rganish zamonaviy kriminologiyaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Jinoyatchi shaxsi deganda, nafaqat qonunbuzarlik sodir etgan individ, balki uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ma'naviy olami va jinoyatga olib kelgan ichki determinantlari yig'indisi tushuniladi. Kriminologik adabiyotlarda shaxsning jinoiy xulq-atvori uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida shakllanishi alohida ta'kidlanadi. Bu jarayonda shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlari tizimida yuzaga kelgan deformatsiyalar asosiy rol o'ynaydi.

Jinoyat sodir etishga moyil shaxsning kriminologik ta'rifi uning nafaqat huquqiy maqomini, balki ijtimoiy-psixologik mohiyatini ham qamrab oladi. Ilmiy nuqtai nazardan, bunday shaxs — ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri ostida shakllangan, ijtimoiy normalarga zid bo'lgan qarashlar va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan, muayyan sharoitda jinoyat sodir etishga ichki psixologik tayyorgarligi mavjud bo'lgan individdir. Ushbu ta'rifning negizida shaxsning antisotsial yo'nalganligi yotadi, ya'ni individning

ongida jamiyat manfaatlariga zid keluvchi maqsadlar va ularga erishishning g'ayriqonuniy vositalari ustuvorlik qiladi.

Bunday shaxslarning eng muhim belgisi huquqiy ongning deformatsiyaga uchraganida namoyon bo'ladi. Bu holatda shaxs qonun talablarini o'zining shaxsiy xohishlariga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida qabul qiladi va huquqiy taqiqlarni aylanib o'tishga moyil bo'ladi. Kriminologiya fanida ta'kidlanishicha, jinoyatga moyillik tug'ma xususiyat emas, balki individning ijtimoiylashuv jarayonidagi nuqsonlar, masalan, oiladagi nosog'lom muhit yoki salbiy ijtimoiy guruhlar ta'siri natijasida yuzaga keladigan orttirilgan holatdir[1].

Shu bilan birga, jinoyat sodir etishga moyil shaxsning qiyofasida ehtiyojlar va motivatsiyalar tizimining buzilishi markaziy o'rin tutadi. Ularda qonuniy mehnat orqali erishib bo'lmaydigan yoki qiyin bo'lgan moddiy va maishiy imtiyozlarga ega bo'lishga intilish kuzatiladi. Psixologik jihatdan esa bunday shaxslar o'zini nazorat qilish qobiliyatining pastligi, agressivlik va vaziyatni noto'g'ri baholash kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi[2], bu esa ularni kriminogen vaziyatlarda jinoiy qaror qabul qilishga undaydi.



Qisqa qilib aytganda, jinoyatga moyil shaxs — bu ijtimoiy moslashuvi zaiflashgan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari yemirilgan va jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan sub'ekt bo'lib, unga nisbatan profilaktik ta'sir choralari qo'llash davlatning kriminologik siyosatidagi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Jinoyatga moyillikning ijtimoiy-demografik tavsifi shaxsning yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi va ijtimoiy kelib chiqishi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar orasida erkaklar va faol mehnat yoshidagi (18-35 yosh) shaxslar ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga, ma'lumot darajasining pastligi yoki mutaxassislikka ega emaslik shaxsning jamiyatda o'z o'rini topa olmasligiga[3] va natijada jinoiy yo'l bilan daromad topishga bo'lgan moyilligining ortishiga olib keladi.

Ma'naviy-axloqiy va psixologik xususiyatlar kriminologik qiyofaning yadrosini tashkil etadi. Bunday shaxslarga xos bo'lgan asosiy belgi — bu huquqiy nigilizm yoki qonunlarga nisbatan bepisandlik munosabatidir. Psixologik jihatdan ularda emotsional beqarorlik, agressivlikning yuqoriligi, impulsivlik va boshqalarning manfaatlarini hisobga olmaslik kabi sifatlar kuzatiladi. Professor M.H. Rustambayev ta'kidlaganidek, jinoyatchi shaxsining shakllanishida uning ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan manfaatlarining

yo'qligi[4] va axloqiy qadriyatlarining yemirilgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminologiya fanida jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni tiplarga ajratish shunchaki ilmiy tasnif emas, balki profilaktika ishlarining samadorligini ta'minlovchi strategik vositadir. Shaxsning antisotsial yo'nalishi qay darajada barqaror ekanligini anglash huquqni muhofaza qiluvchi organlarga har bir individ bilan ishlashda o'ziga xos yondashuvni tanlash imkonini beradi.

Shaxsning kriminologik qiyofasini tiplarga ajratish profilaktika choralari to'g'ri belgilashga yordam beradi. Kriminologiyada shaxslar antisotsial yo'nalishining barqarorligiga qarab "tasodifiy", "vaziyatli" va "ashaddiy" tiplarga bo'linadi. Ashaddiy jinoyatchilar uchun jinoiy faoliyat hayot tarziga aylangan bo'lsa, vaziyatli tiplar uchun tashqi noqulay muhit yoki nazoratning yo'qligi jinoyatga turtki bo'ladi. Bu borada shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi nuqsonlar, ayniqsa, oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar va salbiy kichik guruhlar ta'sirini inobatga olish lozim[5].

Tasodifiy jinoyatchi tipi odatda ijobiy ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan shaxslardan iborat bo'lib, ular tomonidan qonunbuzarlik sodir etilishiga ko'pincha kutilmagan va shaxs nazorat qila olmaydigan og'ir hayotiy sharoitlar sabab bo'ladi[6]. Bunday shaxslar uchun sodir etgan qilmishi chuqur pushaymonlik va ruhiy iztirob bilan kechadi. Shu sababli, ularga nisbatan qo'llaniladigan profilaktika choralari asosan ijtimoiy



qo‘llab-quvvatlash va ruhiy reabilitatsiyaga yo‘naltirilishi, ularning qayta jinoyat yo‘liga kirishining oldini olishi zarur.

Vaziyatli jinoyatchi tipi esa axloqiy jihatdan beqaror bo‘lib, ularning jinoyatga qo‘l urishi tashqi muhitdagi qulay fursat yoki nazoratning zaifligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ularning ichki dunyosida jinoyatga nisbatan qat‘iy to‘siq mavjud emas, lekin ular jinoyatni izlab ham yurishmaydi. Ushbu toifadagi shaxslar bilan ishlashda asosiy urg‘u tashqi kriminogen vaziyatlarni bartaraf etishga va shaxsning huquqiy mas‘uliyatini oshirishga qaratilishi lozim. Bu yerda ijtimoiylashuv jarayonidagi nuqsonlar, ayniqsa, oilaviy tarbiyadagi bo‘shliqlar shaxsning tashqi salbiy ta’sirlarga chidamliligini kamaytiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ashaddiy jinoyatchi tipi uchun esa jinoyat sodir etish shaxsiy ehtiyoj va hayot tarziga aylanib bo‘lgan. Ularning antisotsial yo‘nalishi barqaror bo‘lib, ijtimoiy normalarni ongli ravishda inkor etadilar. Ko‘p hollarda ular ilgari ham sudlangan yoki kriminal submadaniyatning faol a‘zolari hisoblanadi. Bunday tipdagi shaxslarga nisbatan oddiy tarbiyaviy suhbatlar kam samara beradi; ular bilan ishlashda qat‘iy ma‘muriy nazorat va uzoq muddatli ijtimoiy adaptatsiya dasturlari talab etiladi[7].

Shuningdek, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning bunday tabaqalanishi profilaktika choralari “manzilli”

qilishga xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuv davridagi salbiy kichik guruhlar ta’sirini va oiladagi nosog‘lom muhitni vaqtida aniqlash, uning qaysi tipga mansubligidan qat‘i nazar, jinoiy xatti-harakatning oldini olishdagi eng muhim bo‘g‘indir.

Jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning kriminologik qiyofasini o‘rganish va ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy va amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Ushbu takliflar jinoyatchilikning oldini olishda individual yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan.

Jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning kriminologik portretini yaratishda nafaqat ijtimoiy, balki zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarur. Birinchi navbatda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga “Intellectual kriminologik monitoring” tizimini joriy etish taklif qilinadi. Bu tizim shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, jinoyatga moyil guruhlariga a‘zoligi va destruktiv mazmundagi kontentga qiziqishini algoritmlar yordamida tahlil qilib, uning “kriminogenlik indeksi”ni belgilab berishi lozim. Bunday yondashuv vaziyatli jinoyatchilarni aniqlash va ularga nisbatan profilaktikani erta boshlash imkonini beradi.

Ikkinchi muhim taklif — “Profilaktik ta’sirning differensial modeli”ni ishlab chiqishdir. Amaldagi profilaktika choralari ko‘pincha barcha toifadagi shaxslar uchun bir xil (umumiy



suhbat, ogohlantirish) ko‘rinishga ega. Ilmiy jihatdan asoslangan taklif shundan iboratki, “ashaddiy” tipdagi shaxslar uchun qat’iy ma’muriy cheklovlar va majburiy ijtimoiy moslashtirish dasturlari, “tasodifiy” tipdagi shaxslar uchun esa faqat psixologik-konsultativ yordam va mediatsiya mexanizmlarini qo‘llash qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilishi lozim.

Uchinchidan, jinoyatga moyillikni shakllantiruvchi omil sifatida “Oilaviy kriminologiya” yo‘nalishini rivojlantirish lozim. Statistika tahlillar jinoyatchilarning aksariyati nosog‘lom oilaviy muhitda kamol topganini ko‘rsatadi. Shu bois, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun mahallalarda “oilaviy psixologik xizmat” institutlarini tashkil etish va jinoyatga moyilligi bor o‘smirlarning oilalari bilan tizimli ishlashning huquqiy mexanizmini yaratish zarur. Bu shaxsning ijtimoiylashuv davridagi nuqsonlarni vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, jinoyat sodir etib, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar uchun “Postpenitensiar rehabilitatsiya” tizimini tubdan isloh qilish

taklif etiladi. Ashaddiy jinoyatchi tipining qayta jinoyat sodir etishini kamaytirish uchun ularni ish bilan ta‘minlovchi tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish yoki davlat tomonidan kafolatlangan kasbiy qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish kerak. Shaxsning ijtimoiy foydali mehnatga jalb etilishi uning kriminologik qiyofasidagi salbiy belgilarni neytrallashtirishning eng samarali yo‘lidir.

Xullas, ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi jinoyatchilikni jismoniy jihatdan cheklashdan ko‘ra, uning ijtimoiy-psixologik ildizlarini kesishga va shaxsni sog‘lom ijtimoiy muhitga qaytarishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat sodir etishga moyil shaxsning kriminologik qiyofasi murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uni o‘rganish huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Profilaktik tadbirlar nafaqat jazo choralari qo‘llashga, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik holatini tuzatishga va uning jamiyatdagi foydali faoliyatini tiklashga yo‘naltirilishi zarur.

## FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Рустамбаев. М.Х. Ўзбекистон Республикасининг криминалогияси. — Т.: "Адолат", 2018. — Б. 156.
2. Қурбонов М.Ш. Жиноятчи шахсининг криминалогик тавсифи. // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. — 2021. — №2. — Б. 42.
3. Закарияев А.С. Жиноятчи шахсини ўрганишнинг криминалогик муаммолари. // Ҳуқуқ ва бурч. — 2021. — №4. — Б. 25-28.